

**TASDIQLAYMAN**

**“SHAH-POLAN M” MCHJ**

**Boshqaruv raisi A.I.Shukurov**

**TASDIQLAYMAN**

**O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi**

**Bosh kotibi B.M.Sattarov**



## **NIZOM**

### **Ismat Shukurov xotirasiga bag‘ishlangan “Qarshi Open III” xalqaro shaxmat turniri**

**Qarshi, O‘zbekiston  
2025-yil, 4–11-may**

#### **1. Musobaqa tasnifi**

##### **1.1. Musobaqa quyidagi maqsadlarni ko‘zlagan holda tashkil etilgan:**

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi “2026-yil O‘zbekistonda bo‘lib o‘tadigan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga kompleks tayyorgarlik ko‘rish hamda shaxmatni ommaviy harakatga aylantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori ijrosini ta’minlash;
- yoshlar, havaskorlar va malakali shaxmatchilarini shaxmat bo‘yicha musobaqa va turnirlarga jalb etish;
- O‘zbekistonda shaxmatni ommalashtirish va rivojlantirish;
- Madaniy va sport an‘analarini saqlash va ko‘paytirish;
- O‘zbekiston shaxmatchilarining mahoratini oshirish.

#### **2. Mezbon tashkilotlar**

**2.1. Musobaqaga umumiy rahbarlik qilish va tashkil etish “SHAH-POLAN M” MCHJ bilan hamkorlikda O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi (keyingi o‘rinlarda O‘SHF) tomonidan amalga oshiriladi. Turnirni bevosita boshqarish O‘SHF tomonidan tayinlangan hakamlar kengashiga yuklanadi.**

#### **3. Vaqt va o‘tkazish joyi**

**3.1. Musobaqa Qarshi shahrida 2025-yil 4-maydan (kelish) 11-maygacha (ketish) bo‘lib o‘tadi.**

**3.2. Manzil: Qarshi shahridagi Gimnastika sport saroyi (Islom Karimov, 30).**

#### **4. Musobaqa o‘tkazish tartibi**

**4.1. Musobaqa FIDE qoidalari asosida 2 guruhda tashkil etiladi:**

**A guruhida – 1800 va undan yuqori reytingli ishtirokchilar;**

**B guruhida** – reytingi 1999 va undan past bo‘lgan ishtirokchilar qatnashish huquqiga ega. Reytingi 1800 dan 1999 gacha bo‘lga ishtirokchilar A yoki B guruhini tanlash huquqiga ega.

FIDE reytingi (standart) 2025-yil 1-aprel hisobga olinadi.

Ishtirokchilar 4-may kuni 19:00 gacha mandat kengashiga o‘zini ishtrokini tasdiqlashi shart. Aks holda qur'a ro‘yxatidan chiqariladi.

**4.2.** Musobaqa shveysarcha tizim standart yo‘nalishida 9 turda o‘tkaziladi. Har bir ishtirokchiga 90 daqiqadan vaqt beriladi va birinchi yurishdan boshlab har bir yurishga 30 soniyadan vaqt qo‘sib boriladi. 30 yurishgacha durangga kelishish mumkin emas.

**4.3.** Turga maksimal kechikich vaqt 15 daqiqa. Sababsiz 1 ta turga kelmagan ishtirokchilar musobaqadan chetlatiladi.

**4.4.** Taklif etilgan xorijlik shaxmatchilarning reytinglari 2025-yilning 1-aprel holatiga ko‘ra hisobga olinadi.

**4.5.** Musobaqada ishtirok etishni istagan xorijlik shaxmatchilar 2025-yilning 25-apreliga qadar O‘zbekiston shaxmat federatsiyasining rasmiy elektron pochtasi [uzchess@inbox.ru](mailto:uzchess@inbox.ru) orqali ariza yuborishlari mumkin.

## 5. Musobaqa dasturi

Sana	Tadbir	Vaqt
04.05.2025	Kelish kuni	
05.05.2025	Ochilish marosimi 1 tur	15.00
06.05.2025	2 tur	09.30
06.05.2025	3 tur	15.00
07.05.2025	4 tur	15.00
08.05.2025	5 tur	09.30
08.05.2025	6 tur	15.00
09.05.2025	7 tur	15.00
10.05.2025	8 tur	15.00
11.05.2025	9 tur	09.30
11.05.2025	Yopilish marosimi	15.00
11.05.2025	Ishtirokchilarni kuzatish	

## 6. G‘olib va sovrindorlarni aniqlash

**6.1.** G‘oliblar to‘plangan ochkolar soni bo‘yicha aniqlanadi, agar yig‘ilgan ochkolar teng bo‘lgan taqdirda, quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha aniqlanadi:

- 1) qisqartirilgan Buxgolts koeffitsienti -1;
- 2) buxgolts koeffitsienti;
- 3) shaxsiy uchrashuv;(barcha ishtirokchilar o‘zaro o‘ynagan bo‘lsa)
- 4) g‘alabalar soni;
- 5) reyting performans va boshqalar.

**6.2.** Agar ishtirokchilarning ballari teng bo'lsa, ularning sovrinlari taqsimlanmaydi va yuqorida ko'rsatilgan tenglik bo'yicha taqsimlanadi. Agar bitta o'yinchini ikkita nominatsiyada g'olib chiqsa, sovrinlar umumlashtirilmaydi, kattaroq sovrin yoki bosh sovrin beriladi. Pul mukofotlari sovrindorlarga taqdirlash marosimida beriladi yoki ular barcha kerakli hujjatlarni taqdim etgandan keyin o'tkazib beriladi. Bank xizmatlari sovrin jamg'armasidan ushlab qolinadi. Yopilish marosimiga qatnashmagan ishtirokchilar sovrinlari taqdim etilmaydi.

**Umumiy mukofot jamg'armasi 350 000 000 so'mni tashkil qiladi.**

**A guruh mukofot jamg'armasi: 274 000 000 so'm**

Asosiy mukofot		Maxsus sovrinlar			
1	100 000 000		Ayollar		20 yoshgacha bo'lgan o'smirlar
2	50 000 000	1	5 000 000	1	5 000 000
3	40 000 000	2	3 000 000	2	3 000 000
4	20 000 000	3	2 000 000	3	2 000 000
5	10 000 000				
6	8 000 000				
7	6 000 000				
8	5 000 000		Nuroniyalar - 60+		14 yoshgacha bo'lgan o'smirlar
9	4 000 000	1	3 000 000	1	3 000 000
10	3 000 000			2	2 000 000
Jami:	246 000 000			Jami:	28 000 000

**B guruh mukofot jamg'armasi: 76 000 000 so'm**

Asosiy sovrin		Maxsus sovrinlar	
1	20 000 000	14 yoshgacha bo'lgan yoshlar	Ayollar

2	10 000 000	1	1 500 000	1	1 500 000
3	8 000 000	2	1 200 000	2	1 200 000
4	5 000 000	3	1 000 000	3	1 000 000
5	4 000 000				
6	3 000 000		Nuroniylar - 60+	10 yoshgacha	
7	2 000 000	1	1 000 000	1	1 000 000
8	1 800 000	2	800 000	2	800 000
9	1 500 000	3	600 000	3	600 000
10	1 300 000			4	500 000
11	1 100 000			5	300 000
12	1 000 000		Reyting 1 700 gacha		Reyting 0
13	900 000	1	500 000	1	500 000
14	800 000		Eng yosh ishtirokchi	Eng yosh qiz ishtirokchi	
15	600 000	1	500 000	1	500 000
Jami:	61 000 000			Jami:	15 000 000

## 7. Turnir ishtirokchilari va badali.

### 7.1. Quyidagilar uchun ishtirok etish bepul:

–Xalqaro unvonga ega shaxmatchilar GM, IM, WGM, WIM

#### O'zbekistonlik ishtirokchilar uchun to'lovlar A guruhi uchun (1-maygacha to'lanadi):

FIDE reytingi 2200 va undan yuqori bo'lgan shaxmatchilar uchun to'lov 300 000,

FIDE reytingi 2000–2199 bo'lgan shaxmatchilar uchun 350 000 so'm,

FIDE reytingi 1800–1999 bo'lgan shaxmatchilar uchun 400 000 so'm

#### O'zbekistonlik ishtirokchilar uchun to'lovlar B guruhi uchun (1-maygacha to'lanadi):

FIDE reytingi 1800–1999 bo'lgan shaxmatchilar uchun 250 000 so'm,

FIDE reytingi 1600–1799 gacha bo'lgan shaxmatchilar uchun 300 000 so'mni tashkil etadi;

FIDE reytingi 1599 va undan past bo'lgan shaxmatchilar uchun 350 000 so'mni tashkil etadi.

FIDE reytingiga ega bo‘limgan shaxmatchilar uchun 400 000 so‘mni tashkil etadi.

60 yoshdan oshgan nuroniylar va jismoniy nogironligi bor shaxslar uchun 50% chegirma taqdim etiladi.

Ishtirokchilar o‘z badallarini O‘zbekiston shaxmat federatsiyasining bank hisob raqamiga o‘tkazadilar:

<b>Account</b>	2021 2000 1001 7827 6001	<b>INN 201710234</b>
<b>Bank nomi</b>	PJSCB “DAVR BANK”	<b>MFO 00981</b>

## **7.2. Xorijlik ishtirokchilar uchun to‘lovlar A, B guruhlari uchun (25-aprelgacha to‘lanadi):**

100 AQSh dolları.

60 yoshdan oshgan nuroniylar va jismoniy nogironligi bor shaxslar uchun 50% chegirma taqdim etiladi.

Xorijlik fuqarolar to‘lovlarini quyidagi bank hisobiga to‘laydilar:

O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi	Account: 2021 2840 2001 7827 6009
S.W.I.F.T.: DVRBUZ22	Manzil: 98A Karimov str., Tashkent, Uzbekistan
Bank nomi: P.J.S.C. “DAVR BANK” Bank telefon raqami: (99871) 207-09-81	

## **7.3. O‘SHF barcha arizalarni ko‘rib chiqadi va majburiy dastlabki kelishuv asosida FIDE reytingi 2500 va undan yuqori bo‘lgan xorijiy grossmeysterlarni quyidagi shartlar asosida qabul qiladi:**

To‘liq pansion va aviachiptalarni to‘lash (ekonom-klass) 500 AQSh dollaridan ortiq bo‘limgan. Bepul turar joy 4-may kuni soat 14.00 dan (tushlik) 11-may kuni tushgacha (nonushta) taqdim etiladi.

## **8. Apellyatsiya qo‘mitasi**

**8.1.** Turnir natijasi bo‘yicha berilgan shikoyatlarni ko‘rib chiqish uchun kamida 5 kishidan iborat apellyatsiya qo‘mitasi tashkil etiladi. Apellyatsiya qo‘mitasi tarkibi tashkiliy qo‘mita tomonidan tasdiqlanadi.

**8.2.** Turnir hakamlaridan va ularning qabul qilgan qarorlaridan norozi bo‘lgan ishtirokchilar musobaqa jarayonida apellyatsiya qo‘mitasiga murojaat qilishlari mumkin.

## **9. Fair Play qoidalari**

**9.1.** Barcha ishtirokchilar Fair Play qoidalariiga rioya qilishlari va hamkorlik qilishlari kerak. O‘yinchilar istalgan vaqtida bosh hakamning halol o‘yin qoidalariiga asoslangan yakuniy qaroriga binoan turnirdan chetlatilishi mumkin.

**9.2.** Barcha o‘yinchilar yuqorida aytib o‘tilgan harakatlar ustidan arbitraj, maslahat yoki biron bir yurisdiktsiya doirasidagi sudga shikoyat qilish huquqiga ega emasligiga rozi. Ishtirokchilar turnir davomida tuzilgan juftliklar uchun apellyatsiya berish huquqiga ega emaslar. Turnirda ro‘yxatdan o‘tish orqali o‘yinchilar turnir bilan bog‘liq hech qanday moliyaviy kompensatsiya yoki turnir bilan bog‘liq tuzatish talab qilish huquqiga ega bo‘lmaydi.

**9.3.** Tadbirning muvaffaqiyatli o‘tishi uchun Tashkilotchi tegishli xabarnoma bilan jadvalni o‘zgartirish, reglamentni yangilash yoki amaldagi qoidalarda ko‘rsatilmagan har qanday masala bo‘yicha qaror qabul qilish huquqiga ega.

## **10. Vizalar**

**10.1.** O‘zbekistonga kirish uchun viza zarur bo‘lgan ishtirokchilar 2025-yilning 20-apreliga qadar ro‘yxatdan o‘tishlari pasport nusxalarini yuborishlari kerak. Aks holda, tashkilotchilar viza yordamini kafolatlamaydi.

**10.2.** Agar O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi viza berishga ruxsat bermasa, tashkilotchilar viza bo‘yicha hech qanday yordam ko‘rsata olmaydi.

## **11. Kiyinish tartibi va sog‘liqni saqlash choralar**

**11.1.** FIDE kiyinish kodi qoidalariiga e’tibor bering (shortik, shippak va hokazolarda ko‘rinmang).

Tana harorati ko‘tarilgan yoki boshqa kasallik belgilari bo‘lsa, ishtirokchi turnirdan chetlashtirilishi mumkin. Agar kerak bo‘lsa, keyinroq qo‘srimcha qoidalari chiqarilishi mumkin.

## **12. Moliyalashtirish**

**12.1.** Sovrin jamg‘armasi va tashkiliy xarajatlar, hakamlar, transfer, turar joy va turnirning taklif etilgan ishtirokchilar va rasmiy shaxslari uchun to‘lovlar O‘SHF yig‘imlari va homiylik hisobidan qoplanadi.

Boshqa ishtirokchilar va murabbiylarning sayohat xarajatlari va kunlik xarajatlari yuboruvchi tashkilotlar tomonidan qoplanadi.

## **13. Yakuniy qoidalar**

**13.1.** Musobaqalarning muvaffaqiyatli o‘tishi uchun musobaqa nizomiga tashkiliy qo‘mita tomonidan o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilishi mumkin.

### **Aloqa ma'lumotlari:**

Telefon: (+998-71) 241-14-00; (+99890) 168-67-60 telegram username: @SABIROVA\_OlGA\_SERGEVNA E-mail: [uzchess@inbox.ru](mailto:uzchess@inbox.ru)